

ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish imkoniyatlarini yaratadi. Byurokratik, jamoaviy va bozor tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish modellari har biri o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, bozor tamoyillari asosidagi moliyalashtirish modeli, xususiyl moliyaviyl manbalarni jalb qilish va ta'limning samaradorligini oshirish borasida samarali strategiya sifatida ko'rsatilgan. Yevropa mamlakatlarida, masalan, blok grantlar mexanizmining natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, bu esa oliyl ta'lim muassasalarining moliyaviyl mustaqilligini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Mazkur moliyalashtirish usullarining har biri ijtimoiyl-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda joriyl etilishi, davlat va xususiyl sektor o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, oliyl ta'lim muassasalarida moliyaviyl rejalashtirishni rivojlantirish va amalga oshirishda mamlakatlarning o'ziga xos ijtimoiyl-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish zarur hisoblanadi. Shu bois, xorijiy tajriba asosida O'zbekistonning oliyl ta'lim tizimida barqaror moliyalashtirish modellari va samarali moliyaviyl rejalashtirish amaliyotlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pranevičienė B., Pūraitė A. The financing methods of higher education system //Jurisprudencija. – 2010. – T. 122. – №. 4. – S. 335–356-335–356.
2. Contracts may also include input-based criteria. Revised version of: Bennetot Pruvot, E., ClaeysKulik, A.-L. and Estermann, T. (2015) Designing strategies for efficient funding of universities in Europe, EUA, Brussels, p.26
3. Enora Bennetot Pruvot and Thomas Estermann, European University Association, Allocating core public funding to universities in Europe: state of play & principles, March 2022
4. European University Association, define project: designing strategies for efficient funding of universities in Europe, 2015.
5. Lesia Leshanych¹, Iryna Miahkykh², Mariana Shkoda³, Models of financing of higher education institutions in foreign countries, Baltic Journal of Economic Studies, Vol. 4, No. 5, 2018.

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA MINTAQADA SANOAT KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATINING MOLIVAVIY JIHATLARI

Kadirov San'at Yuldashevich,
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Mintaqada sanoat klasterlarini rivojlanishi uning bugungi kundagi holati orqali ta'minlanadi. Sanoat klasterlari korxonalarining eng muhim turi sifatida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoat tarmoqlarida klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor

qaratilgan. Jumladan, sanoatda kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliy lashtirish darajasini oshirish hamda Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish [1] belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda sanoat klasterlari faoliyatini samarali tashkil etish va holatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat klasterlari - ishlab chiqarish zanjirida birlashgan geografik jihatdan mahalliy lashtirilgan va o'zaro bog'langan kompaniyalar guruhi bo'lib, ular doirasida yakuniy mahsulot va qo'shilgan qiymat yaratiladi [2]. Ushbu klasterlar yetuk klasterlar shaklida ixtisoslashgan yetkazib beruvchi bazalari, ko'proq diversifikatsiyalangan tegishli tarmoqlar, kengroq ko'lamli qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar va mijozlar bilan chuqur aloqalarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Mazkur klasterlar korxonalar va universitetlar, tadqiqot institutlari, iste'molchilar, texnologiya brokerlari va maslahatchilar o'rtasidagi strategik uyushmalarni o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, mintaqada klasterlar ko'pincha erkin iqtisodiy zonalar tarkibida tuzilishi mumkin.

Sanoat klasterlarini rivojlanish holati innovatsion faoliyat va uning ta'siriga asoslanadi. Chunki, bu holatda innovatsiyalarni boshqarishni tashkil etishning klaster shakli va innovatsiyaning maxsus shakli bo'lgan "jami innovatsion mahsulot"ni shakllantirishga sabab bo'ladi [3]. Mazkur innovatsiya bir nechta firmalar yoki ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatining mahsulini aks ettiradi. Bu esa ularni umumiy mintaqaviy iqtisodiy makonda o'zaro bog'lanishlar tarmog'i orqali jadal ravishda keng taraqqiy qildirish imkonini beradi. Klasterlarning taraqqiyotini innovatsiyalar belgilab beradi va ularning holati bevosita innovatsiyalardan keladigan sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlari va imkoniyatlariga asoslanadi.

Bugungi kunga kelib, Xorazm viloyati mintaqasida sanoat klasterlari sanoat korxonalari shaklida taraqqiy qilmoqda. Uning holatini viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyati tashkil etadi. Ya'ni, viloyatda yengil sanoat klasterlari korxonalari shaklida aholining zarur tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda faol ishtirok etadilar. Ularning moliyaviy rivojlanish ko'rsatkichi bevosita mavjud umumiy ishlab chiqarish quvvati ko'rsatkichi bilan namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirish holati ushbu sohaning taraqqiy qilishi va iqtisodiy tahlil qilish usullari bilan belgilanadi. Albatta, mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirish holatini tahlil qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda ma'lumot to'plash va tahlil qilish kerak bo'ladi:

1) Mintaqaning iqtisodiy holati va salohiyati:

- hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari: Yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, investitsiyalar hajmi va boshqa asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.

- resurslar bazasi: Mintaqada mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, xomashyo bazasi, energetika resurslari va ulardan foydalanish darajasi.

- infratuzilma: Transport infratuzilmasi (yo'llar, temir yo'llar, aeroportlar, suv yo'llari), energetika infratuzilmasi (elektr ta'minoti, gaz ta'minoti), kommunikatsiya infratuzilmasi (internet, aloqa) va ularning rivojlanganlik darajasi.

- mehnat resurslari: Aholining soni, demografik tarkibi, bandlik darajasi, ta'lim darajasi, malakali kadrlar mavjudligi va ularning taqsimlanishi.

- innovatsion salohiyat: Ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, texnologik parklar, startap ekosistemi va ularning faoliyati.

2) Mintaqada mavjud bo'lgan sanoat klasterlari:

- klasterlar soni va turlari: Mintaqada faoliyat yuritayotgan sanoat klasterlarining soni va ularning ixtisoslashuvi (masalan, to'qimachilik, oziq-ovqat, mashinasozlik, qurilish materiallari va boshqalar).

- klasterlar tashkiliy tuzilmasi: Klasterlarni boshqaruvchi organlar va klaster ishtirokchilari (korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim muassasalari, davlat organlari va boshqalar) o'rtasidagi aloqalar.

- klasterlar faoliyat ko'rsatkichlari: Klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi, investitsiyalar hajmi, yaratilgan ish o'rinlari soni va innovatsion faoliyat natijalari.

- klasterlar muammolari va imkoniyatlari: Klasterlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar (moliyaviy resurslarning yetishmasligi, infratuzilmaning yetarli emasligi, malakali kadrlar defitsiti, tartibga soluvchi muhitning noqulayligi va boshqalar) va ularning rivojlanishi uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar (ichki va tashqi bozorlarda talabning mavjudligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik va boshqalar).

3) Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash choralari:

- sanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va strategiyalari: Mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, strategiyalari va ularning amalga oshirilishi.

- klasterlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari: Klaster ishtirokchilariga taqdim etiladigan moliyaviy, texnik, innovatsion va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlash choralari.

- tartibga soluvchi muhit: Sanoat klasterlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

4) Xalqaro tajriba: Sanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba, ya'ni sanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va mintaqa sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga asoslanadi.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada sanoat klasterlarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozim:

- mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ta'minlash;

- mavjud klasterlarning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha e'tiborga molik tavsiyalarni ishlab chiqish;

- yangi klasterlarni tashkil etish bo'yicha konsepsiyalarni shakllantirish;

- klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari yanada kuchaytirish;

- klasterlar o'rtasida o'zaro va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish.

Mazkur tahlillar mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Buni samarali amalga oshirish uchun mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirishini moliyaviy tahlil orqali tahlil qilish talab etiladi. Ushbu tahlil strategik rejalashtirish usuli bo'lib qaraladi. Shulardan kelib chiqib, mintaqada sanoat klasterlarini rivojlanishining moliyaviy jihatlari quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

- ixtisoslashuv va samaradorlik: Klasterlar muayyan sanoat tarmoqlarida ixtisoslashgan bo'lib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

- innovatsiyalar: Klasterlar kompaniyalar, tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantiradi. Bu esa innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning yaratilishiga olib keladi.

- ish o'rinlari yaratish: Klasterlar yangi korxonalarning tashkil etilishiga va mavjud korxonalarning kengayishiga yordam beradi, bu esa ish o'rinlari sonining ortishiga olib keladi.

- investitsiya jalb qilish: Klasterlar investorlar uchun jozibador bo'lib, mintaqaga investitsiya oqimini ko'paytiradi.

- mintaqaviy rivojlanish: Klasterlar mintaqaning iqtisodiy o'sishini rag'batlantiradi, infratuzilmani yaxshilaydi va aholining turmush darajasini oshiradi

- global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish: Klasterlar kompaniyalarga global bozorda raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.

- yangi bozorlarga kirish: Klasterlar kompaniyalarga yangi bozorlarga kirish imkoniyatini beradi.

- texnologik o'zgarishlar: Klasterlar texnologik o'zgarishlardan foydalanish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun imkoniyat yaratadi.

- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Davlat klasterlarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashi mumkin.

- xalqaro hamkorlik: Klasterlar xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xorijiy tajribani o'rganish uchun imkoniyat yaratadi

Ushbu tahlil mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada ushbu strategiya istiqbolni ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Xulosa shuki, o'tkaziladigan tahlillar orqali mintaqada sanoat korxonalarining mavjud muammolarini aniqlashga, klaster shaklidagi ushbu korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga va sanoat klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Анализ возможностей развития промышленных кластеров и производственной кооперации в Республике Узбекистан. Авторы доклада: Юлий Юсупов Юрий Наумов. Аналитический доклад. – Ташкент, 2012. - с. 11.
<https://ced.uz/wp-content/uploads/2012-Klastery.pdf>

3. Воробьев В.П., Липатников В.С., Розанова С.К. Инновационное развитие промышленных комплексов на основе кластерного подхода. Монография. - Санкт-Петербург, 2011. - с. 36.

KORPORATIV BOSHQARUV AMALIYOTLARI VA ULARNING KORXONA FAOLIYATIGA TA'SIRI

Kuvatova Oliya Sheraliyevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası o‘qituvchisi

Husenov Muhridin Bahriddinovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Moliya fakulteti talabasi

Korporativ boshqaruv bu - korxonalar qanday boshqarilishi va nazorat qilinishini belgilovchi qoidalar, tizimlar va jarayonlar majmuasidir. Bu tamoyil korxonaning aksiyadorlar, rahbariyat, mijozlar, investitsiya manbalari, hukumat va jamiyat kabi manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarida shaffoflik, hisobdorlik va adolatni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar o‘rtasida muvozanatni yaratish, shuningdek, jismoniy shaxslar, korxonalar va jamiyatning manfaatlarini uyg‘unlashtirishdan iborat. Samarali korporativ boshqaruv investorlarning ishonchini mustahkamlash, tavakkalchiliklarni kamaytirish va boshqaruvning mas‘uliyatini oshirish orqali korxonaning natijadorligini yaxshilaydi.

Korporativ boshqaruvning asosiy jihatlaridan biri – kuzatuv kengashining tarkibi va faoliyatidir. Mustaqil va malakali direktorlar ishtirokidagi samarali kengash korxonaning strategik qarorlarini yaxshiroq qabul qilishiga va agentlik xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, boshqaruv tizimining muhim elementi – Bosh direktor (CEO) va Kuzatuv kengashi raisi lavozimlarini ajratishdir, bu esa manfaatlar to‘qnashuvining oldini olib, nazorat mexanizmini mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, audit qo‘mitasi, nomzodlarni tanlash qo‘mitasi va rag‘batlantirish qo‘mitasi kabi maxsus kengash qo‘mitalari korxonaning shaffofligini ta‘minlash va aksiyadorlarning manfaatlariga mos keladigan qarorlarni qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Korporativ boshqaruv huquqiy me‘yorlarga rioya qilish va axloqiy biznes yuritishni ham o‘z ichiga oladi. Moliyaviy hisobot standartlari va oshkoralik me‘yorlariga amal qilish korxonaning shaffof faoliyat yuritishini kafolatlaydi. Biroq, yaxshi boshqaruv faqat qonunchilik talablariga rioya qilish bilan cheklanmaydi – u biznes faoliyatiga ijtimoiy mas‘uliyat (CSR) tamoyillarini